

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA CHO‘L VA VOHA ORNITONIMLARINING STATISTIK VA SEMANTIK TADQIQI

Oromova Munisa Jamshid qizi

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Email: munisaoromova86@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ornitonimlar va ularning tasnifi haqida ma’lumot berilgan. Shu bilan birga, ornitonim komponentli o‘zbek xalq maqollari tasnifi va ulardan cho‘l va voha qushlari ishtirokidagi maqollar statistikaberib o‘tilgan. Bundan tashqari, maqolada mazkur maqollarning qanday hosila ma’no ifodalashi haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ekstralingvistik omil, ornitonim, cho‘l va voha qushlari, chumchuq, bulbul.

Аннотация: В данной статье представлена информация об орнитонимах и их классификации. В то же время статистически рассмотрена классификация узбекских народных пословиц с орнитонимическим компонентом и пословиц с участием пустынных и оазисных птиц. Кроме того, в статье рассматривается и производное значение этих пословиц.

Ключевые слова: экстралингвистический фактор, орнитоним, птицы пустынь и оазисов, воробей, соловей.

Kishilik jamiyatining tafakkur mahsuli, hayotiy tajribalarning achchiq xulosasi yoki inson faoliyatining istalgan turi haqida falsafiy mushohadalar qisqa, lo‘nda va mag‘zi to‘q holatda maqollarda aks etishini bilamiz. Ijtimoiy turmushning biror jabhasi yo‘qki, u xususida maqol yaratilmagan bo‘lsa. Shu boisdan, o‘zbek xalq maqollarini qanday omillar asosida shakllanganligini aniqlash biroz qiyin bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda bu borada ma’lum darajada izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.Shomaqsudov, M.Husainov, B.Yo‘ldoshev, A.Nasirov, A.Yuldashev, N.Nasrullayeva, B.Jo‘rayeva kabilarning tadqiqotlarida o‘zbek xalq maqollari har jihatdan o‘rganilgan¹. Xususan, Bibish Muhsinovning tadqiqotida, maqollar shakllanishining ikki omili ajratilgan: intralingvistik (ibora, folklor janrlari, matallar, rivoyat, latifa, afsona, topishmoqlar, e‘tiqodiy tushunchalar, xalq udumlari, xalq o‘yinlari, hadislar), ekstralingvistik (hayvon nomlari, kasb-kor tushunchalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, diniy tushunchalar, vaqt nomlari, o‘simlik nomlari, tabiat hodisalari, o‘zbek xalqi tushmush voqeligi)². Hayvon nomlari asosida shakllangan maqollar ichida qush nomlari (ornitonimlar) asosida vujudga kelgan maqollar bugungi kunga qadar, statistik tomondan o‘rganilmagan, shu sababdan, biz mazkur tahlillarimizda zoonimlar tarkibiga kiruvchi ornitonim komponentli maqollardan

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-maqollarining-tilshunoslikda-o-rganilishi>.

² Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna. O‘zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. – Samarqand, 2019. – B. 231 .

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

cho‘l va voha qushlari ishtirokidagi maqollarni statistik jihatdan bir qadar tadqiq etishga harakat qilamiz.

O. Mavlonov muallifligidagi “Zoologiya” (7-sinf) kitobida qushlar uch katta turkum asosida guruhlariga bo‘lingan:

1. Yashash joyiga ko‘ra:
 - a) Voha va cho‘l qushlari;
 - b) Suv havzalari va sohil qushlari;
2. Qushlarning mavsumiy hodisalarga moslashuviga ko‘ra:
 - a) uchib ketuvchi;
 - b) ko‘chib yuruvchi;
 - d) o‘troq qushlar;
3. Yirtqichligiga ko‘ra:
 - a) kunduzgi yirtqichlar;
 - b) yapaloqqushlar;

Yil davomida bir joyda yashaydigan chittak, musicha, ko‘k kaptar, kaklik, so‘fito‘rg‘ay, qirg‘ovul chumchuq, mayna kabi qushlar o‘troq qushlar deyiladi.

Yil fasllariga qarab joyini o‘zgartirib turadigan qushlar ko‘chib yuruvchi qushlar deyiladi. Go‘ngqarg‘a, olaqarg‘a, zog‘cha va qorayaloqlar shunday qushlar sirasiga kiradi.

Ayrim qushlar kuzda yoki sovuq tushishi bilan issiq joylarga uchib ketadi, bunday qushlar uchib ketuvchi qushlar sanalib, ularga o‘rdak, g‘oz, laylak, turna, qaldirg‘och, bulbul, oqqush, zarg‘aldoq kabilar kiradi.

Voha qushlari ikki yirik guruhni o‘z ichiga oladi: chumchuqsimonlar - bu turkumga qaldirg‘och, go‘ngqarg‘a, chug‘urchiq, bulbul, chumchuq kabi; kaptarsimonlar - bu turkumga esa ko‘k kaptar va musicha kiradi. Cho‘l qushlariga esa tuvaloq, tuyaqush kabi qushlar kiradi. Suv va sohil qushlari g‘ozsimonlar, laylaklar singari ikki guruhga bo‘linib, tarkibiga o‘rdak, g‘oz, oqqush, laylak kabilar kiradi.

Kunduzgi yirtqich qushlarga qora kalxat, tasqara, miqqiy, jo‘rchi, burgut, qarchig‘ay, lochin va boshqalar kiradi. Yapaloqqushlar turkumiga esa ukki, boyo‘g‘li kabilar kiradi ³.

Yuqoridagi tasnifga tayanib, ornitonim komponentli maqollarni quyidagicha guruhlashni lozim topdik:

1. Cho‘l va voha qushlari ishtirokidagi o‘zbek xalq maqollari
2. Yirtqich qushlar ishtirokidagi o‘zbek xalq maqollari

³ Mavlonov O. Biologiya (Zoologiya) darslik. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2017.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

3. Parrandalar ishtirokidagi o‘zbek xalq maqollari


4. Suv va sohil qushlari ishtirokidagi o‘zbek xalq maqollari

Bunday maqollar qushlarning hayot tarzi, tovushi, tashqi ko‘rinishi, xarakter-xususiyatlari, tabiati asosida vujudga kelgan. Qushlar azal-azaldan insonlar bilan birga, bir osmon ostida yashab kelayotgani uchun ham insoniyatning har jabhasida u madaniy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy bo‘ladimi barcha-barchasida ularning ishtirokini ko‘ramiz. Shunday ekan, bu jarayon bevosita xalq og‘zaki ijodi bo‘lgan maqollarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan. Quyida “O‘zbek xalq maqollari” va Sh. Shomahmudov Sh. Shorahmedovning “Ma‘nolar maxzani” kitoblari asosidagi statistik ma‘lumotlarni yig‘dik. O‘zbek xalq maqollari orasida cho‘l va voha qushlari ishtirokidagi maqollar ancha salmoqli o‘rin egallaydi. Ayniqsa, bulbul, bedana, chumchuq, chittak, kakku, kaklik, kaptar, ko‘kqarg‘a, musicha, qarg‘a, qirg‘ovul, sa‘va, to‘rg‘ay, to‘tiqush, tuyaqush, zag‘izg‘on, zog‘ komponentli maqollar uchraydi.

1. Qarg‘a komponentli maqollar - 52 ta
2. Chumchuq komponentli maqollar - 29 ta
3. Bulbul komponentli maqollar - 28 ta
4. Bedana komponentli maqollar - 11 ta
5. Zag‘izg‘on komponentli maqollar - 6 ta
6. To‘rg‘ay komponentli maqollar - 5 ta
7. Zog‘ komponentli maqollar - 3 ta
8. Tuvaloq komponentli maqollar - 3 ta
9. Kaptar yoki kabutar komponentli maqollar - 2 ta
10. Kaklik komponentli maqollar - 2 ta
11. Qarqunoq komponentli maqollar - 2 ta

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani



O‘zbek xalq maqollarida Cho‘l va voha qushlari statistikasi

Qolgan chittak, kakku, ko‘kqarg‘a qirg‘ovul, sa‘va, jibljibon, to‘tiqush va tuyaqush komponentlilari o‘zbek xalq maqollari orasida 1 tadan uchraydi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalq maqollari orasida qarg‘a ornitonimli maqollar eng sermahsul qo‘llanilar ekan. Sababi, qarg‘a O‘rta Osiyo, ayniqsa, O‘zbekistonning barcha hududlarida mavjud bo‘lib, odamzod turmush tarzining har jabhasida doimiy ko‘zga tashlanib turadigan qushlardan biridir. Tabiatda qarg‘aning ikki turi uchraydi: qora qarg‘a va kulrang qarg‘a. Qora qarg‘aning pati faqat qora, kulrang qarg‘aniki kulrang va qora bo‘ladi. O‘zbekiston hududida qora qarg‘a ko‘p uchaydi⁴.

Qarg‘aning yashash tarzini etalonga aylantirgan holda, xalqimiz orasida turli ma‘nodagi maqollar uchraydi. Bular:

To‘zilgan g‘ozni to‘plangan qarg‘a olar.

⁴ Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдлик. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 695.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Go‘ngqarg‘a bo‘lib ming yil yashagandan, sher bo‘lib bir yil yashagan afzal.

Yo‘ldoshing qarg‘a bo‘lsa o‘limtikka boshlaydi.

Yo‘lbars qirqqa kirsam ham, yeyishi – ang, qarg‘a mingga kirsam ham, yeyishi – go‘ng.

O‘lgani-o‘lgani ko‘zini qarg‘a cho‘qigani.

O‘qimay mulla bo‘lmas, cho‘qimay qarg‘a bo‘lmas.

Qarg‘ani qafasda boqmaydilar.

Bilamizki, qarg‘a o‘lgan hasharot, hayvon va boshqa jonzorlar bilan oziqlanadi. Asosan, axlatxonalar, go‘nglarni titib mayda jonivorlarni cho‘qib yeydi. Yuqoridagi maqollarning shakllanishida qarg‘aning ana shu xususiyati yetakchilik qilgan.

Shuningdek, bu qush insonlarga ob-havo va fasllar bilan bog‘liq turli tabiat hodisalaridan ham xabar beradi. Bu quyidagi maqollarda ham o‘z aksini topgan:

Yoz kelganin laylak bilur, qish kelganin – ola qarg‘a.

Qarg‘a ming qag‘illasa ham yoz chiqmas, g‘oz bir qag‘illasa – yoz.

G‘oz kelsa, yoz kelar, qarg‘a kelsa, qish kelar.

G‘oz kelsa, yoz kelar, qarg‘a kelsa, qatqoq bo‘lar.

Qarg‘a qag‘illasa qishni chaqiradi, g‘oz g‘ag‘illasa yozni chaqiradi.

Qarg‘a ketmay qor ketmas, turna kelmay muz ketmas.

Ola qarg‘a og‘och boshiga qo‘nsa, yoz tez kelar.

Bir qarg‘a bilan qish kelmas.

Cho‘l va voha qushlaridan chumchuq komponentli maqollar ham anchagina bo‘lib, bunday maqollarning shakllanishida bu qushning son jihatdan ko‘pligi va odamlar istiqomat qiladigan joyga yaqin yashashidir. Chumchuq, ko‘pincha, xonadonlarga yaqin joyda yashaydigan, hasharot va don bilan oziqlanadigan qush⁵. Chumchuq ornitonimli maqollar quyidagi semalarni o‘zida jamlaydi:

1. Kichik jussalik;

Usta ovchi chumchuqqa o‘q otmas.

Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin.

Chumchuq semirsa, chaksa kelmas.

Ovchi chumchuq tutibdi.

Itolg‘i chumchuq olsa, o‘zini qarchig‘ay sanaydi.

Chumchuqni to‘p bilan otish aqldan emas.

So‘z chumchuq emas, og‘izdan chiqsa tutib bo‘lmas.

Barakali qo‘lning so‘ygan chumchug‘i ham qo‘y bo‘ladi.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 695.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Chumchuq “pirr” etsa, Qo‘rqoq yuragi “shirr” etadi.

Ola qarg‘aning yurishini qilaman deb, chumchuqning chatanog‘i yirilibdi.

Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning chatanog‘i yirilibdi.

It qutursa, egasin qopar, Chumchuq qutursa, burgutga chopar.

2. Qo‘rqoqlik;

Qirg‘iy uchsa, chumchuqni yoriqda ko‘r.

3. Cho‘qib oziqlanish;

Chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmas.

Dehqon tarig‘idan kechsa ham chumchuqlar chiqisholmaydi.

Qarg‘alikkka qoqitmadim, chumchuqlikka cho‘qitmadim.

Yuqoridagilardan ma’lumki, chumchuq komponentli maqollarning ko‘pchiligining yaralishida hajm jihatdan kichikligi asos bo‘lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, bulbul komponentli maqollar o‘zbek xalq maqollari orasida anchagina salmoqli o‘rin tutadi. Bunda, asosan, bulbul ornitonimining yashash joyi va sayroqilik xususiyatlaridan foydalangan holda maqollar yaralgan. Demak, bulbul komponentli maqollarda ikki sema yetakchilik qiladi. Bular:

1. Yashash tarzi;

Boqqa bulbul yarashar odamga –aql.

Boqqa bulbul yarashar odamga –aql.

Bulbulga bog‘ yaxshi,

Kaklikka — tog‘.

Bulbul gulzorda go‘zal.

Bulbulning suygani – qizil gul.

Bubulning joyi – bog‘

Bo‘ston bo‘lsa bog‘ing bulbul bo‘lur qo‘nog‘ing

Gulsiz bulbul– unsiz bulbul.

Gul qadrini bulbul bilar.

Orzusiz ko‘ngil – bulbulsiz chaman.

2. Sayroqilik;

Bola gul, tili – bulbul

Bulbul navosi – ko‘ngil havosi.

Sayroqsiz bulbul bo‘lmas, sevgisiz – inson.

Cho‘l va voha qushlari orasida bedana komponentli maqollar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bedana - tovuqsimonlar turkumining qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub parranda, kichik sayroqi qush. Urushqoq bedana. Tezotar bedana. Salmoqi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bedana⁶. Bedana komponentli maqollarda ham xuddi bulbul ornitonimi kabi uning sayroqilik xususiyati va kichik jussalilik semalari ko‘zga tashlanadi:

1. Sayroqilik:

Bedanani sayroqiligiga qarab baholaydilar.

Sayroqi bedanaga – xaridor ko‘p.

2. Hajm jihat kichiklik:

Bedananing ham o‘ziga yarasha botmoni bor.

Oz bo‘lsin soz bo‘lsin, bedana bo‘lsin, yog‘ bo‘lsin.

Zag‘izg‘on(hakka) – chumchuqsimonlar turkumining qarg‘asimonlar oilasiga mansub qush⁷. Chumchuqsimonlar turkumiga mansub ushbu ornitonim ishtirokidagi maqollarda uning cho‘qib oziqlanish bilan birga, harakatchan, tinib-tinchimas va bir joyda muqim o‘tirolmaslik kabi ma‘nolari maqollarda ham o‘z ifodasini topgan.

Bular:

Zag‘izg‘on bir qo‘nib sakkiz sakraydi.

Qushning quvi – zag‘izg‘on.

Zag‘izg‘on cho‘qigan bilan to‘q bo‘lmas.

Zag‘izg‘on to‘tiqushning yurishini qilaman deb o‘z yurishidan ayrilibdi.

Zag‘izg‘on soqligidan o‘lmaydi, suqligidan o‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqimizning ta’sirchan, jozibali va bo‘yoqdorligini ta’minlashda maqollarning o‘rni beqiyos sanaladi. Inson hayotining har xil vaziyatlari, harakat-holati, ijtimoiy turmush tarzi barcha-barchasi maqollarda mujassamlashgan desak adashmaymiz. Shundan kelib chiqib, tilimizda turli mavzularda maqollar yaratilgan. Ornitonim komponentli maqollar ham shular jumlasidandir. Ornitonimlarning tasniflari turlicha bo‘lgani kabi maqollarda ham ularning tasnifi turlichadir. Ornitonimlar ishtirokidagi maqollardan cho‘l va voha ornitonimli maqollar ham boshqalari singari nutqimizda tayyor holda mavjud bo‘lib, o‘ziga xos hosila ma‘nolarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq maqollari orasida cho‘l va voha ornitonimlari ishtirokidagi maqollar eng yuqori o‘rinni egallaydi. Sababi, bunday qushlar respublikamiz hududida ko‘p uchraydi va ularning turlari ham anchaginani tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna. O‘zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. – Samarqand, 2019. – B. 231.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 819.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 695.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

2. Mavlonov O. Biologiya (Zoologiya) darslik. - T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б 819.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 695.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 695.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-maqollarining-tilshunoslikda-o-rganilishi>.